

MAXALLIY KUZGI BUG'DOY NAVLARINING MINERAL O'G'ITLAR BILAN TA'MINLANISHINING HOSILDORLIKKA TA'SIRI

QDTU dotsenti - N.I.Irnazarova

Annotatsiya. Cug'oriladigan yerlarda kuzgi boshqoli don ekinlaridan barqaror, mo'l va sifatli hosil yetishtirishda sug'orish, oziqlantirish tartiblarini optimallashtirish asosida takomillashtirilgan jadal texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy qilish, g'allachilikda hosildorlikni va don sifatini oshirish muhim omillardan biridir.

Kalit so'zlar: nav, biologik, agrotehnologiya, tannarx, iqlim, muddat, ozuqa, kasallik, zararkunanda, sifat

ВЛИЯНИЕ ОБЕСПЕЧЕННОСТИ МИНЕРАЛЬНЫМИ УДОБРЕНИЯМИ МЕСТНЫХ СОРТОВ ОЗИМОЙ ПШЕНИЦЫ НА УРОЖАЙНОСТЬ

Доцент КГТУ Н.И.Ирназарова

Аннотация. Широкое внедрение в производство усовершенствованных интенсивных технологий на основе оптимизации режимов орошения и подкормки для получения стабильного, обильного и качественного урожая озимых зерновых культур на орошаемых землях, повышение урожайности и качества зерна в зерноводстве является одним из важных факторов.

Ключевые слова: сорт, биологический, агротехнология, себестоимость, климат, срок, корм, болезнь, вредитель, качество

INFLUENCE OF MINERAL FERTILIZERS PROVISION OF LOCAL WINTER WHEAT VARIETIES ON HARVEST

Associate Professor of KSTU N.I.Irnazarova

Abstract. The widespread introduction of improved intensive technologies based on optimizing irrigation and feeding regimes for obtaining a stable, abundant, and high-quality harvest of winter grain crops on irrigated lands, increasing grain yield and quality in grain farming, is one of the important factors.

Key words: variety, biological, agrotechnology, cost, climate, timing, feed, disease, pest, quality

Respublikamizda asosiy oziq-ovqat ekini hisoblangan bug'doy hosildorligiga ta'sir etuvchi omillarni mintaqaning tuproq-iqlim sharoiti va navlarning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganish g'allachilikdagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Yangi yaratilgan bug'doy navlarining mintaq-tuproq-iqlim sharoiti

va navlarning biologik xususiyatlariga mos agrotexnologiyalarini ishlab chiqish navlarning potensial hosildorligidan to'la foydalanishga va hosildorlikni va don sifatini oshirishga, yetishtirilgan don tannarxini kamaytirishga imkon beradi.

Boshqoli don ekinlari hosilining shakllanishiga navning biologik xususiyatlari, mintaqa tabiiy iqlim sharoiti, tuproq unumdorligi, o'tmishdoshlar, ekish usuli, muddati va me'yori, oziqa moddalar me'yori va qo'llash muddatlari, nam bilan ta'minlanganlik, o'simlikni kasallik, zararkunandalar bilan zararlanishi, ekinzorni begona o'tlar bilan ifloslanishi, barcha agrotexnik tadbirlarni optimal muddatda va sifatli o'tkazilishi, hosilni qisqa davrda nobudgarchiliksiz o'rib-yanchib olinishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Shuning uchun ham agrotexnik usullar orasida sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida kuzgi bug'doy rivojlanishining jadal yoki sust bo'lishi, hosilning mo'l yoki sifatli aksincha past va sifatsiz bo'lishi asosiy oziqa elementlari, azot, fosfor va kaliy (NPK) ning yetarli miqdorda yoki aksincha yetishmasligiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun biz, janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan yangi yumshoq bug'doy navlarining o'g'itlashga ta'sirchanligini o'rganish borasida tajribalar olib borildi.

Dala tajribalari Qashqadaryo viloyati uchun xos bo'lgan Qarshi tumanidagi Don va dukakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Qashqadaryo filialining tajriba dalasida o'tkazildi. Tajriba dalasining tuprog'i och tusli bo'z tuproq, mexanik tarkibi o'rta soz, kam sho'rlangan sizot suvlar 2-2,5 metr chuqurlikda joylashgan, kam minerallashgan (2,5-3g/l) iborat. O'tmishdosh g'o'za. O'suv davrida tuproqdagi namlik tuproq cheklangan dala nam sig'iminining 70% dan kam bo'lmagan holda ushlab turildi.

Tajriba maydoni tuprog'i tarkibida gumus miqdori 0-30sm qatlamda 0,918% ni, 30-60 sm da 0,660%, tuproq tarkibidagi yalpi azot muvofiq holda 0,018%; va 0,055%, yalpi fosforning miqdori 0,105%; 0,065% va yalpi kaliy miqdori 1,90;1,83% ni, harakatchan azot miqdori 4,6 va 2,3mg/kg, harakatchan fosfor mos ravishda 43,0 va 30,0 mg/kg, almashinuvchi kaliy miqdori 118,0; 113,0 mg/kg ni tashkil qildi.

Tajribada, andoza sifatida Davlat reestriga kiritilgan Krasnodar-99 navi standart qilib olindi. Tadqiqotlarimizda, yumshoq bug'doyning istiqbolli navlari G'ozg'on, Elomon, Yaksart, Hisorak, Bunyodkor, Farovon va Barhayot navlari qo'yidagi variantlarda 1)Nazorat (o'g'itsiz); 2) $N_{90}P_{60}K_{30}$ 3) $N_{135}P_{75}K_{45}$ 4) $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg\ga joylashtirildi.

O'simlikning bo'yi uning yotib qolishga chidamliligi bilan bevosita bog'liq ko'rsatkich hisoblanadi. Bizning tadqiqotlarimiz natijalarining ko'rsatishicha nazorat (o'g'itsiz) variantda barcha navlarda o'simlik bo'yi nisbatan past bo'lishi kuzatildi. Standart nav Krasnodar-99 ga nisbatan faqat Hisorak navining bo'yi 0,2 sm ga past bo'ldi. Qolgan barcha navlarning bo'yi standart Krasnodar-99 ga nisbatan 7,0 sm dan

16,9 sm gacha yuqori bo'ldi.

Ma'dan o'g'itlarning qo'llanilishi bilan o'simlik bo'yining oshganligi kuzatildi. $N_{90}P_{60}K_{30}$ kg/ga qo'llanilganda nazorat variantiga nisbatan barcha navlar bo'yicha o'simlikning bo'yi standart nav Krasnodar-99 da 60,8 sm dan 53,2 sm ga Barhayot navida 81,8 sm ga gacha oshganligi kuzatildi. Boshqa navlarda ham nazoratga nisbatan o'simlikning bo'yi oshib bordi. Tajribamizda eng baland o'simliklar $N_{180}P_{60}K_{30}$ kg/ga o'g'it berilgan variantda yuqori bo'lganligi kuzatildi va navlarga bog'liq holda 95,6 sm dan 108,3 sm gacha o'zgarib bordi.

Tajribamizda navlarga va qo'llanilgan ma'dan o'g'itlar me'yorlariga bog'liq holda boshqning uzunligi, 1 ta boshqdag don vazni va donlar soni ham o'zgarib bordi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki ma'dan o'g'it me'yorlarining oshib borishi bilan boshq uzunligi, 1 ta boshqdag don soni va vazni ko'paydi.

Ma'dan o'g'it me'yorlarining oshib borishi bilan barcha navlarda hosildorlikning oshib borganligi aniqlandi. $N_{90}P_{60}K_{30}$ kg/ga qo'llanilgan paykalchalarda navlar bo'yicha hosildorlik (Krasnodar-99)da 53,7 s/ga, (Hisorak) da 64,7 s/ga bo'lganligi yoki bu nazorat variantidagiga nisbatan 30,6; 36,6 s/gacha oshganligi aniqlandi.

Jadval-1

**Ma'dan o'g'itlarning bug'doy navlari hosil strukturasi
va hosildorligiga ta'siri**

№	Variantlar	Navlar	O'simlik bo'yi, sm	Bosh boshq o'lchamlari			Don hosildor- ligi, s/ga
				uzunligi, sm	1 ta boshqdag don vazni, g	don soni, dona	
1	Nazorat (o'g'itsiz)	Krasnodar-99	60,8	9,0	1,1	35	23,1
2		G'ozg'on	75,6	8,5	1,6	43	23,4
3		Elomon	75,1	7,5	1,4	45	22,3
4		Yaksart	67,8	9,5	1,8	43	27,7
5		Hisorak	60,6	9,4	1,5	39	29,9
6		Bunyodkor	69,9	9,0	1,8	44	25,6
7		Farovon	71,5	8,7	1,6	42	24,8
8		Barhayot	77,7	8,9	1,9	45	28,1
9	$N_{90}P_{60}K_{30}$	Krosnadar-99	65,7	9,5	1,5	50	53,2
10		G'ozg'on	71,3	10,0	2,0	55	61,5

11		Elomon	83,6	9,5	1,7	52	56,7
12		Yaksart	90,3	10,1	2,0	57	59,4
13		Hisorak	81,5	10,0	1,9	54	58,9
14		Bunyodkor	91,5	9,8	1,9	56	64,6
15		Farovon	89,7	10,3	2,0	58	61,3
16		Barhayot	81,8	9,8	2,0	56	64,7
17	N ₁₃₅ P ₇₅ K ₄₅	Kroznadar-99	73,1	10,0	2,2	60	59,4
18		G'ozg'on	89,3	11,0	2,4	58	63,2
19		Elomon	98,7	10,2	2,1	54	62,2
20		Yaksart	99,6	10,5	2,3	60	71,8
21		Hisorak	88,9	10,2	2,1	64	69,8
22		Bunyodkor	96,5	10,5	2,4	60	72,8
23		Farovon	97,4	11,2	2,3	62	67,1
24		Barhayot	92,4	10,0	2,6	60	68,3
25	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₆₀	Kroznadar-99	95,6	10,3	2,5	61	61,9
26		G'ozg'on	101,5	11,5	2,8	65	74,8
27		Elomon	115,2	12,1	3,0	67	65,6
28		Yaksart	105,1	12,0	2,9	65	73,2
29		Hisorak	108,3	11,5	2,6	68	70,1
30		Bunyodkor	101,6	12,1	3,1	66	78,2
31		Farovon	103,1	12,5	3,0	64	76,3
32		Barhayot	101,4	13,0	3,5	67	73,2

Ma'dan o'g'itlar N₁₈₀P₉₀K₆₀ kg/ga qo'llanilganda N₁₃₅P₆₀K₃₀kg/ga nisbatan standart Krasnodar-99 navida hosildorlik 2,5 s/ga, G'ozg'on navida 11,6 s/ga, Elomon navida 3,4 s/ga, Bunyodkor navida 5,4 s/ga, Farovon navida 9,2 s/ga, Barhayot navida 4,9 s/gacha oshganligi aniqlandi. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha o'rganilgan yangi navlar azotli o'g'itlarga standart Krasnodar-99 naviga nisbatan ta'sirchanroq ekanligi namoyon bo'ldi.

Xulosalar. O'rganilgan natijalardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, yangi yumshoq bug'doy navlari Qashqadaryo viloyatining issiq, quruq

iqlim sharoitida ma'dan o'g'itlarga ta'sirchanligining oshib borganligi ma'dan o'g'itlar $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga qo'llanilganda hosildorlikning oshib borishi bilan boshqadagi don soni va vazni yuqori bo'lishligi, kuzgi bug'doyning qishlash darajasiga ijobiy ta'siri, boshqa variantlarga nisbatan mahsuldor poyalar sonining ko'p bo'lishi va o'simlikning o'sib rivojlanishining yuqori bo'lishligiga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Xalilov.N Bobomirzaev P.X.Kuzgi bug'doyni sug'orish va o'g'itlashning ilmiy asoslari. Toshkent :Fan, 2009.-200 b.
- 2.Xalilov.N Bobomirzaev P.X. Bug'doy. Samarqand, 2011.-295 b.
- 3.Oripov R.Xalilov N.O'simlikshunoslik.Toshkent: 2007.-384 b.
- 4.Lavronov G.A.O'zbekiston bug'doylari- Toshkent 1974—336 b .
- 5.Irnazarov Sh.I. "Mineral o'g'itlarni turli me'yor va nisbatlarini kuzgi bug'doy o'simliklarinig fotosintetik faoliyatiga ta'siri " "Science and innovation" International scientific journal, 2022, №1 (6) 286-287 b.
- 6.Irnazarov Sh.I. "Mineral o'g'itlarni turli me'yor va nisbatlarda qo'llashning kuzgi bug'doy hosildorligiga ta'siri ". "Agro kimyo ximoya va o'simlik karantini " ilmiy amaliy jurnali, 2022, №4 41-42 b.
- 7.Irnazarov.Sh.I."Dehqonchilikda o'g'itlar oziq moddalari yo'qotilishi muammolari va ilmiy-amaliy yechimlari". O'zbekiston agrar fani xabarnomasi, 2018, 2 (72), 14-16 b.
- 8.Irnazarov Sh.I., Irnazarov I. "Agrokimyo xizmatining hozirgi zamon agrotechnologiyalari". "Agro kimyo ximoya va o'simliklar karantini" jurnali, 2017, №1 (1), 34-35 b.
- 9.Ирназаров Ш.И."Влияние минеральных удобрений в разных нормах и пропорциях на экономическую эффективность озимой пшеницы"."Science and innovation" International scientific journal, 2025, №5 (1) 133-135 б.
- 10.Irnazarov Sh.I. "Mineral o'g'itlarni turli me'yor va nisbatlarini kuzgi bug'doy o'simliklarinig fotosintetik faoliyatiga ta'siri"."Science and innovation" International scientific journal, 2022, №1 (6) 286-287 b.